
"Besh tashabbus olimpiadasi"ning 2-mavsum musobaqalari bo'lib o'tmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 19 yanvardagi "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 92-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Toshloq tumanida "Besh tashabbus olimpiadasi"ning 2-mavsum musobaqalari bo'lib o'tmoqda.

Tumandagi "Jarqishloq" MFYda joylashgan 14-umumta'lim maktabida yoshlar o'rtasida "Besh tashabbus olimpiadasi"ning Ichki ishlar vaziri kubogi uchun sportning "Voleybol" turi bo'yicha sektorlar aro tuman bosqichi bo'lib o'tdi.

Unda sektorlardan yig'ilgan jamoalar ishtirok etdi. Musobaqa yakunida g'olib jamoalarga diplom hamda esdalik sovg'alari topshirildi.

2023-10-21 09:59:43